

## О‘ЗБЕК ТИЛИ ДАРSLARIDA PISA XALQARO TESTLARIDAN FOYDALANIB, O‘QUVCHILARNING DARS DAGI FAOLLIGINI OSHIRISH

*Ubaydullayeva Tursunoy Sunnatullayevna  
Toshkent viloyati Nurafshon shahri  
57-umumta’lim maktabining  
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek tili darslarida PISA xalqaro testlaridan foydalanib, o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** PISA, ta’lim, tarbiya, o‘zbek tili, texnologiya imkoniyatlar, xalqaro test, o‘quv jarayoni.

Bugungi kunda har bir o‘qituvchi o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarga qiziqishni oshirishning samarali usullarini izlamoqda. Agar bolaning darsdagi faoliyati u uchun ahamiyatsiz bo‘lsa, u zerikkan va befarq bo‘lsa, u o‘z qobiliyatlarini namoyish eta olmaydi. Ta’lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash ko‘plab omillarga bog‘liq (o‘quvchilarning yoshi, ularning imkoniyatlari, o‘qituvchining tayyorgarligi va xohishi, har xil sharoitlarning mavjudligi va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim tashkilotlarining PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularda ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilangan. Shuningdek, “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga2 ko‘ra, o‘quvchilarni baholash xalqaro PISA dasturi reytingida O‘zbekistonning 2030-yilga kelib, 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida3 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish, 348 ta Tayanch maktablarni tashkil etish va 6000 nafar o‘qituvchilarning malakasini oshirish vazifalari belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xalq ta’limi vazirligining qarori4 asosida Respublika bo‘yicha Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan Tayanch maktablari (keyingi o‘qinlarda – Tayanch maktablar) belgilandi.

Qarorga ko‘ra, Tayanch maktablari - hududdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirish bo‘yicha asosiy metodik bazaga ega bo‘lgan, doimiy harakatdagi o‘quv mashg‘ulotlar, seminar-treninglar, davra suhbatlarini tashkil etish, xalqaro baholash dasturlariga oid ilg‘or xorijiy tajribalarni ommalashtirish ishlarini amalga oshiradigan muassasalar hisoblanadi.

Tayanch maktablari bazasida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlari doirasidagi sinovlarga o‘quvchilarni tayyorlash, xalqaro tadqiqotning namunaviy topshiriqlarini yechish bilan birga, tadqiqotda baholanadigan ko‘nikma va kompetensiyalarni, shuningdek, o‘quvchilarda

ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini baholash va rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy tavsiyalar berish maqsadlari ilgari surilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Tayanch maktablar faoliyatini samarali tashkil etish, o‘tkaziladigan seminar-trening, o‘quv mashg‘ulotlari va davra suhbatlarining tizimli va mazmunli bo‘lishi dolzarb ahamiyatga ega. PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo‘lib, Program for international student assessment – o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma‘noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo‘lib, u dunyo bo‘ylab 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an’anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o‘tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo‘nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo‘nalish kiritiladi. 2022 - yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo‘nalish sifatida o‘quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o‘quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari baholanadi. PISA da o‘qish savodxonligini baholash vositalari keskin o‘zgargan.

Bu borada Rossiya natijalari ham 2018 yilda bir oz yomonlashganini ko‘rdik. Shuningdek, o‘quvchilarning test sinovlarini baholash uchun yangi baholash formati (kompyuter platformasi) joriy qilinibgina qolmay, balki o‘quvchilarga butunlay boshqa matnlar taklif etildi: ko‘p o‘lchovli matnlar, ziddiyatlarni aniqlash, nuqtai nazarni yoki manbalar sifatini aniqlash kerak bo‘lgan matnlar.

Shuning uchun bu yo‘nalishda o‘zbekistonlik maktab o‘quvchilarining natijalarida uncha katta siljish bo‘lmasligi mumkin, deb o‘ylaymiz. Lekin umid qilamizki, matematika va tabiiy fanlardan, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Gruziya kabi mamlakatingiz ham dastlabki bosqichlarda yaxshi natijalar ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.R.Axmedov, G.O.Tog‘ayeva “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo‘llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019 yil
2. A.A.Ismailov, X.R.Ahmedov, Q.A.Karimberdiyev “PISA 2018 xalqaro tadqiqotining O‘qish savodxonligi qamrov doirasi” qo‘llanma, “Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, Toshkent, 2021- yil
3. A.A.Ismailov, N.A.Karimov, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash” metodik qo‘llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019- yi